



**1991-yildan  
chiqa boshlagan**

**Maxsus son**

**ISSN 2010-5584**

til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

**Я** ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

**L** ANGUAGE AND LITERATURE  
**T** EACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**TOSHKENT VILOYAT CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI -5 YOSHDA**



**Ushbu sonda**



Dolzarb mavzu

**5  
bet**

Og'zaki va yozma nutq –  
komillik belgisi



Tahsil

**16  
bet**

Hamid Olimjon lirkasida  
epitetning semantik-  
stistik xususiyatlari



Tadqiqotlar

**49  
bet**

Navoiy lirkasida obrazni  
ifoda etishda ritm va  
mazmun uyg'unligi



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxtarla olingan.

### Maxsus son.

#### Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'lqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulkumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'L DOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinnbosari)

#### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@mail.uz  
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyat ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualiflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhazalarini bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturası. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma — Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
XALQ TA'LIMI VАЗİRLİĞİNİNG  
ILMIY-METODİK JURNALI

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE**

**TEACHING**

**ПРЕПОДАВАНИЕ**

**МУНДАРИЈА**

**SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**G'afurjon Muxamedov.** Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda ..... 2

#### DOLZARB MASALA

**Rayxon Rasulova.** Og'zaki va yozma nutq – komillik belgisi

#### ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

**Feruza Murodova.** Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi ..... 7  
**Sarvinoz Berdiyeva.** O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish .....  
ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari ..... 8  
**Ruxsora Murodova.** ona tili ta'limalda nostandart testlardan foydalanan usullari ..... 11  
**Tojixon Sabitova.** Maqollar badiiyatiga doir ..... 12  
**Sirdaryoxon O'tanova.** Adabiy qahramonlar ruhiyatini va tasvir mushtarakligi ..... 14

#### TAHLIL

**Mohizar No'monova.** Hamid Olimjon lirkasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari ..... 16

**Gulmira Komilova.** Tilshunoslikda lingvokulturologiya ..... 18

**Nilufar Ataqulova.** O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati ..... 20

**Umida Shermatova.** Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limalda binar ma'ruza metodi ..... 22

**O'tkur Islamov, Gulzoda Bekmuratova.** Madaniy nutq – bebaho ma'naviy boylik! .....

**Adiba Davlatova.** So'zning asl ma'nosи – shoiring asl dardi .....

**Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev.** Komil inson masalasi – jamiyat masalasi ..... 28

**Iroda Xoliqulova.** Hamza Hakimzoda niyoziyining dramalarida monologik nutqning o'rni ..... 30

**Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva.** Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari ..... 32

**Bahoroy Eshmanova.** Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlili ..... 34

**Ziyoda Usmonova.** Ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, tahlillar va takliflar ..... 36

**Gulshodaxon Tojiboyeva.** Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mushtarak jihatlari ..... 38

**Emina Achilova.** O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurban" hikoyasida psixologik tasvir ..... 40

**Musajan Tadjibayev.** Germenevtikada psixologik talqin muammolari ..... 42

#### TADQIQOT

**Hoshimjon Quchqorov.** Tarjimon, tarjima va matn ..... 44

**Nafisa Rahmanova.** Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari ..... 46

**Laylo Xasanova.** Navoiy lirkasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi ..... 49

**Arofatoy Muydinova.** O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati ..... 51

**Mohigul Mavlonova.** "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini ..... 53

**Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova.** Samimiyatning teran badiiy ifodasi ..... 55

**Ra'no Xayrullayeva.** O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari ..... 58

**Nafisa Muratova.** Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari ..... 60

**Abdishukur Shofqorov.** "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar ..... 63

**Rahmatilla Norbekov.** Munglig' qalblar kuychisi ..... 65

#### KICHIK TADQIQOT

**Qodirjon Mo'ydinov.** Sud nutqi leksikasidagi o'zlashma so'zlar ..... 67

**Shahnoza Azimjonova.** Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zamirida o'rganish mahorati ..... 69

**Xosiyat Abduqahhorova.** Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi ..... 70

**Dildora Yorbulova.** Hamza hakimzoda niyoziyining ashulalarida xotin-qizlar mavzusi ..... 72

**Aziza Avezova.** Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi? ..... 73

**Nodira Xolikova.** Millat va jamiyatning badiiy in'kosi ..... 76

**Hikmat Hikmatov.** Adabiyot darsida yangi – "xamsa" metodidan foydalanan usullari ..... 78

**Xumoyun Umaraliyev.** Hamza Hakimzoda Niyoziyining she'riyatida erk va bilim talqini ..... 80

tilliligi (36 til) pirovardida tilsizlikka, ya'ni yagona yoki keng tarqalgan, Dog'iston uchun umumiy bo'lgan tilning bo'lmasligiga olib kelishi mumkin edi. Shu masalada ehtirosli va kuchli bahs-tortishuvlar bo'lib o'tardi. Biz jurnal maqolalari va xususiy bahs-munozaralarda Dog'iston uchun turk tilining maqsadga muvofiqligini isbotlar edik". [1: 24] Demak, Maqsud Shayxzodaning tanqidiy qarashlari paydo bo'lishida, ijodining yangi boshqichga ko'tarilishida, ijodkor badiiy olamining kengayishida Dog'istondagi tarixiy jarayonning ma'lum darajada ta'siri mavjud.

Akademik Naim Karimov ma'rifiy romanlarida ijodkorlarning murakkab va biz uchun zavqli hayotidan hikoya qilar ekan, har bir vaziyatni badiiy talqin qilishga urinadi. Tarixiy jarayonni yorqin akslantirishda ijodkor bilan bog'liq bo'lgan tarixiy davrni o'z tili bilan so'zlatadi. Bu o'rinda adabiyotshunoslik hamda tarixiy haqiqat bahsga kirishadi. Olim ma'rifiy roman orqali "Shayx aka" xususidagi ilmiy ma'lumotlarga, daliliy materiallarga, ijodkorga xos badiiylik berish, obraz yaratish borasida haqqoniylilikka asoslanishi orqali ijodkorning XX asr o'zbek adabiyotshunosligidagi adabiy portretini yaratadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman. – Toshkent: Sharq.
2. Azimjonova Sh. Tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta'siri munaqqid nighohida // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 4/5-son. – Xiva, 2022.
3. Karimov N. Shayxzoda va jahon adabiyoti // Jalon adabiyoti, 2008-yil, 11-son. 126–130-betlar.
4. Karimov N. Shayxzoda nega qamalgan? // Darakchi, 2008-yil, 17-aprel.

**Xosiyat ABDUQAHHOROVA,**  
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

## MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARIDA ANTISEMIK MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

Ma'lumki, til murakkab ijtimoiy, biologik-fiziologik hodisa sifatida kommunikativ, emotsiyal-ekspressiv, akkumulativ funksiyalarni bajaradi. Tilning emotsiyal-ekspressiv funksiyasining namoyon bo'lishida qarama-qarshi bo'lgan til birliklarining tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirga qadar tilshunoslikda leksik qarama-qarshilik bir turkum doirasida o'rganib kelindi. Ma'lum vaqt o'tishi bilan bunday munosabatlar boshqa so'z turkumlarida ham kuzatilishi mumkinligi haqida fikrlar bildirildi. Mana shu fikrlar asosida D. Abdullayeva yaqin yillarda ziddiyat tushunchasini kengroq o'rganishni maqsad qilib, antisemiyta termini ostida tadqiq etdi. Darslik va qo'llanmalarda borliqdagi ziddiyat, qarama-qarshilik tor tushunilib, antonimiya nomi ostida talqin qilinib kelingan edi. Vaqt o'tishi bilan jahon tilshunosligi, shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida ham so'z turkumlariaro antisemik munosabatlar mavjudligi aniqlandi.

Antisemik munosabatlarning eng keng ko'lamlisi sifat va ot turkumidagi so'zlar o'tasida yuzaga chiqadi. Ot-sifat antisemiyasida yasovchi asos qaysi turkumda bo'lishidan qat'i nazar, antisemik munosabat yadroso "belgi" tashkil etadi. Chunki ot turkumidagi antisemiyta, asosan, mavhum otlarga xos, bunday so'zlar, odatda, belgi yoki harakatdan mavhum otlar sifatida xarakterlanadi. Masalan: *yovuz* – ma'lum predmetning shunday belgisi, *yovuzlik* – belgining obyektdan xoli shakli.

Mazkur otlar tub so'z shaklida ham (*g'am*, *qayg'u*, *kulfat* kabi), yasama so'z shaklida ham (*ezgulik*, *yovuzlik*, *poklik*, *shodlik* kabi) kuzatiladi. Yasama so'z shaklida kelganda ular semantikasidagi belgi tub holatidagidan yorqinroq aks etadi, chunki bunday holatda semantik akslanish ham sodir bo'ladi: *ezgu* – *ezgulik*, *yovuz* – *yovuzlik* kabi. Bunday holatda asosning o'zi o'zgartmasdan mavhum otlarni hosil qiladi.

Bu hodisa yuqorida keltirilgan misollardagi kabi sifat asosdan ot yasalganda yorqin namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sifatdan -lik yasovchi affksi asosida mavhum otlar yasalganda, asos va yasalma semantikasi juda yaqin hisoblanadi. Turkum otga o'tgan bo'lsa-da, predmetlik xususiyatidan ko'ra belgi xususiyati kuchli bo'ladi (*yomon* – *yomonlik* kabi). Bunday antisemik munosabatlarning asosiy qismi sifat asosdan -lik affksi yordamida mavhum ot yasalganda yuzaga chiqadi. Bu holatda antisemiyta antonimiya yaqinlashgan eng kuchli holat deb e'tirof etishimiz mumkin. So'z turkumlariaro antisemik munosabatlar ot va sifat so'z turkumlarida juda ham ko'p kuzatiladi.

Harakat va predmet bildiruvchi so'zlar antisemiyasida antisemik yadro asosini juda ko'p holatlarda "harakat" semasi tashkil etadi. Chunki sof predmetlik semasi antisemik munosabatni yuzaga keltira olmaydi. Bunda predmet sifatida ham harakatning muallaq holati olinadi. Masalan, *kulmoq* so'zini *yig'lamoq* so'ziga

nisbatan antisemik aloqasini ta'minlab beruvchi sema *kulgi* so'zida ham aks etgan, turkumning o'zgarishi buni inkor eta olmaydi. E'tibor bering: *sezgi*, *kulgi*, so'zlari ot turkumida bo'lishiga qaramay, ularda "predmetlik" xususiyatidan ko'ra "harakat", "holat" semalari aniqroq ifodalangan.

Bunday holat hozirgi o'zbek adabiy tilida tub hisoblangan otlar semantikasida ham uchraydi. Masalan: *javob* – *javob bermoq* kabi. *Javob* so'zi ot turkumida bo'lsa ham, uning semantikasida harakat tushunchasi bor. Shu sababdan *javob bermoq* qo'shma so'zining harakat ma'nosini ifodalashi faqat *bermoq* qismi tufayli yuzaga chiqqan deb bo'lmaydi: *Javob* – "so'roq tariqasida aytilgan fikr", *javob bermoq* – "biror voqe-a-hodisani ifodalash uchun bildirilgan fikrlar jamligidir".

Biz harakat nomini fe'lning o'z kategoriyalardan xoli shakli deb o'rganamiz. Ammo nima bo'lganda ham, u fe'l turkumiga xos va fe'lga oid grammatik xususiyatlar unda mavjud, semantik nuqtayi nazardan u subyektdan xoli emas. Masalan, *savol bermoq* deganimizda, aniq shaxs yoki zamon ma'nosi ifodalanmayotgan bo'lsa-da, unda subyekt ma'nosi bor, chunki harakatning chiqish nuqtasi sezilib turibdi: *savol bermoq* – "biror axborotga ega bo'lish maqsadida nimanidir so'rash". Ko'rib turganimizdek, bu jarayonni bajaruvchisiz (subyektsiz) tasavvur qilib bo'lmaydi. *Savol* so'zida (ot turkumiga oid bo'lganda) esa harakat ana shu bajaruvchidan yiroq bo'ladi.

Demak, harakat va predmet bildiruvchi so'zlar antisemiyasi mazmunan, asosan, bir semantik yadroli ko'rinishda bo'ladi, ya'ni yasovchi asos va yasalmaning ot yoki fe'l turkumida bo'lishidan qat'i nazar, antisemik munosabatga asos bo'lувchi semalar harakat xarakteriga ega bo'ladi: *ijozat* – *taqiqamoq*; *himoya* – *hujum gilmoq*.

Antisemik munosabatlar belgi va harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlar (ya'ni sifat va fe'l turkumidagi so'zlar) asosida namoyon bo'ladi. Masalan: *ozmoq* – *semiz*, *tirik* – *o'lgan* kabi. Quyidagi misollarda antisemik munosabatlarning har ikki turkum doirasida namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Muayyan vaziyatda belgi va harakat munosabatida birining boshqasidan ustunligi sezildi. Shunga ko'ra, biz harakat va belgi anglatuvchi so'zlar antisemiyasining semantik jihatdan quyidagi ikki ko'rinishini ajratishni lozim topdik: 1) "belgi" yadroli antisemik munosabat: *oq* – *qoramamoq*, *qora* – *oqarmoq*; *oz* – *ko'paymoq*, *ko'p* – *ozaymoq*; *ozg'in* – *semirmoq*, *semiz* – *ozmoq*; *qiyin* –

*osonlashmoq*, *oson* – *qiyinlashmoq* kabi; 2) "harakat" yadroli antisemik munosabat: *topmoq* – *yashirin*; *kulgi* – *yig'loq*; *yopiq* – *ochmoq* kabi.

Bir antisemik munosabat nafaqat ikki leksema, balki ikki leksemalar qatorining qarama-qarshiligidini ham ta'minlab kelishi mumkin. Bunda o'zakdosh so'zlar uchun mazmuniy invariant element mavjud bo'lib, ularning yadrosini tashkil etadi. Masalan: *zaif*, *zaiflik*, *zaiflashmoq* – *kuch*, *kuchli*, *kuchaymoq* kabi.

Keltirilgan holatdan ko'rinib turganidek, qarama-qarshilik asosini tashkil etgan semalar ("jismoniy qobiliyati past" – "jismoniy qobiliyati ortiq") har ikki tomondag'i guruh a'zolarining barchasi uchun integral, ya'ni "jismoniy qibiliyati past" semasi birinchi o'zakdosh so'zlar paradigmadagi barcha komponentlarga (*zaif*, *zaiflik*, *zaiflashmoq*), "jismoniy qobiliyati ortiq" semasi esa ikkinchi paradigmatic qatordagi barcha komponentlarga (*kuch*, *kuchli*, *kuchaymoq*) xos. Bu esa mazkur antisemik holat faqat alohida juftliklarning emas, balki ikki paradigmatic qatorning umumiyligi qarama-qarshilik munosabatini yuzaga keltiradi va bunday, bir antisemik yadro asosida uyushgan so'zlar guruhi *antisemik* uyani hosil qiladi. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan fikrlar o'zini to'laqonli oqlaydi.

Shuni aytib o'tish kerakki, antisemik uyalar to'laligicha so'z yasalish paradigmalari bilan belgilanmaydi. Ba'zi o'rindarda antisemianing so'z yasalish paradigmalari chegarasidan chiqishi ham kuzatiladi. Masalan: *ozmoq* – *semiz*; *ozg'in* – *semirmoq*. Bu o'rindagi *semiz* – *semirmoq* leksemalari hozirgi o'zbek adabiy tili me'yoriga binoan bir so'z yasalish paradigmasiga kirmaydi. Chunki ushbu so'zlar soddalashish hodisasiiga uchragan. Antisemiyasi hodisasi boshqa yondosh hodisalardan derivatsiya bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, mustaqil leksik-semantik hodisa sanaladi, shunga ko'ra *semiz* – *semirmoq* so'zlar umumiyligi semantik komponent asosida *ozmoq* – *ozg'in* kabi so'zlar qatori bilan bir antisemik uyani tashkil etadi.

Xulosa o'rnda shuni aytish lozimki, mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarni aniqlashda birgina ot, sifat va fe'l turkumi bilan chegaralanmasdan boshqa turkumlarni ham tadqiq etish, bu hodisani o'rganish jarayonida boshqa yondosh hodisalar bilan taqqoslansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ze'ro, til ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan aloqa-aratashuv vositasidir. Shunday ekan, bu imkoniyatdan unumli foyalanishni o'z oldimizga maqsad qilib olishimiz lozim.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abdullayeva D. O'zbek tilida antisemija. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2010.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1963.
3. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
4. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish: Avtoreferat. – Toshkent, 1997.
5. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Rahmatullayev Sh. va boshq. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.